

## QADIMGI DUNYO TARIXIDA OSSURIYA SIVILIZATSIYASINING TUTGAN O'RNI

*Pardayev Ahrorqul Hasanovich*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi*

*Norbutayeva Sevinch Tursunpo'lat qizi*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qadimgi Ossuriya sivilizatsiyasi va uning davlatchilik tarixidagi tutgan o'rni, podsholikning qisqacha siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tarixi haqida ma'lumotlar berilgan. Ossuriya podsholigi qadimiy Mesopotamiya sivilizatsiyasi bo'lib, ushbu davlat haqidagi ma'lumotlar mavjud manba va adabiyotlar tahlili asosida yoritib berildi.

**Kalit so'zlar:** Kunjuk tepaligi, Ashshur, Tiglatpalasar III, Nimrud, E.P.Botta, Tukulti-Ninurtu qal'asi, Eshakkum, G.A. Leyyard.

Mesopotamiyaning ilk quldarlik davlatlaridan biri bu Qadimgi Ossuriya podsholigi bo'lib, ushbu davlat dastlab, Shimoliy Mesopotamiyaning sharqidagi uncha katta bo'limgan hududni egallagan edi. Bu hududda Nineviya, Arbeli va Ashshur kabi shahar-davlatlar vujudga keladi. Shahar-davlatlar tarkibiga ularning atrofidagi qishloq xo'jalik hududlari ham kirar edi. Bu shahar-davlatlar mil.avv. III ming yillik oxiri va II ming yillik boshlaridayoq o'zlariga xos siyosiy tashkilotlar bo'lgan [Kabirov A. 2016. 131-b.].

Ossuriya qadimiy Mesopotamiya sivilizatsiyasi bo'lib, u mil.avv. XXI asrdan er.avv.XIV asrgacha shahar-davlat sifatida, so'ngra hududiy davlat va oxir-oqibat er.avv. XIV asrdan imperiyaga aylangan va bu imperiya mil.avv. VII asrgacha mavjud bo'lgan [[www.biblicalarchaeology.org](http://www.biblicalarchaeology.org). internet sayti].

Ossuriya podsholigi tarixini o'rganish ishlari dastlab, Mesopotamiyadagi arxeologik qazishma ishlarida, XIX asr o'rtalaridan yuzaga chiqsa boshlaydi. Ingliz arxeologi K. J. Rich 1820-yil Kunjuk tepaligida (Turkiya) qadimgi Ossuriya poytaxti Nineviyani qazishni boshlaydi. Bu yerda 1842-yil E.P. Botta ham o'z tadqiqotlarini amalga oshiradi, lekin hech qanday natijaga erisha olmaydi. Keyingi yillarda, 1846 - 1847-yillarda ingliz diplomati G.A. Leyyard Nimrud tepaligini qazib, qadimiy Ossuriyaning Kalxu shahri qoldiqlarini ochgan. Tepalikdan podsho saroylari, odam-ho'kiz, odam-sher haykallari va badiiy relyeflar topilgan. Y.P. Bottanining Kunjik qazishmalarini Leyard davom ettiradi. 1847-yil Leyard Kunjik tepaligidan Nineviya xarobalarini, jumladan, podsho Sinaxxerib (mil. avv. VII asr) saroyi, uning nevarasi Ashshurbanipalning kutubxonasini topadi.

Keyingi davrlarda tadqiqot ishlari davom ettirilib, U. Rassam Kunjik tepaligidan podsho Ashshurbanipalning va harbiy manzaralar tasvirlangan, ajoyib relyeflar bilan bezatilgan saroyi va podshoning boy kutubxonasini ochadi. U Nimrud tepaligi yaqinidagi Balavatdan mil. avv. IX asrga oid yodgorliklar, jumladan, harbiy yurish va xiroj to‘lash manzarasi tasvirlangan Balavat darvozalari deb atalgan 4 ta jez taxtani topadi.

Fransuz arxeologi V. Andre 1903-1914-yillarda Ossuriyaning qadimiy poytaxti Nineviyada podsho Ashshurbanipalning saroylari, ibodatxonalar qoldiqlarini, jumladan, oliy xudo Ashshur ibodatxonasi, podsho qabrlari, turar-joy binolari va ko‘chalarini qazib ochdi. XX asrning 50-60-yillarida arxeologlar Nineviya shahri xarobalaridan saroy, xo‘jalik inshootlari, ko‘pgina hujjatlarni topganlar. Ossurshunoslikning yuz yillik tarixi davomida siyosiy tarix va davlat qurilishi muammolari o‘rganilgan [Rajabov R. 2018. 168-169-b.].

Ossuriyada mil.avv. XV asrda qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik va savdo rivojlangan. Bir necha katta kanallar barpo etiladi. G‘allakorlik bilan bir qatorda bog‘dorchilik rivojlantiriladi. Tog‘ yonbag‘irlarida mevazor bog‘lar barpo etiladi. Podsho saroyi bog‘larida chet eldan keltirilgan noyob o‘simplik turlari zaytun va mirta daraxtlari o‘stirilgan. Ossur bog‘bonlari uzum va xurmo o‘simpliklarini iqlimlashtirishga harakat qiladilar [Rajabov R. 2015. 116-b.].

Ossuriya katta-katta hududlarni bosib olishi natijasida hududlar, shaharlarda savdo-hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik rivojlanadi. Mamlakatda ko‘plab yerlar o‘zlashtirilgan. Irrigatsiya va suv ta’mnoti yaxshilanadi. Bog‘dorchilik, uzumchilik va chorvachilik rivojlanishi uchun turtki bo‘lgan temir qurollar keng tarqaladi. Talonchilik urushlaridan olingan ko‘plab o‘ljalar va qullardan Ossuriya shahar va qal’alarni qurishda keng foydalilanadi. Yangi shaharlar quriladi, jumladan, Kalxu shahri qayta tiklanadi. Ossuriyaning yangi poytaxti «Tukulti-Ninurtu qal’asi» asir olingan kassit, xurrit va urartu qabilalari kuchi bilan qayta tiklangan [Rajabov R. 2009. 118-b.].

Ossuriya jamiyatining hukmron tabaqasi harbiylar, davlat xizmatidagi zodagonlar, ibodatxonalarning oliy kohinlari va savdo ahlidan iborat bo‘lib, ular juda katta boylik va imtiyozlarga ega bo‘lganlar va mavjud siyosiy hokimiyat bilan yaqin aloqada bo‘lib, uning istilochilik siyosatini qo‘llab-quvvatlaganlar. Ossuriya davlati o‘z tarixining so‘nggi davrida qadimgi Sharq davlatchiligining o‘ziga xos shakliga ega bo‘lgan. Podsho qo‘lida dunyoviy, harbiy va diniy sohalardagi cheklanmagan hokimiyat to‘plangan. «Podshoga hokimiyat muqaddas xudolar tomonidan topshirilib, xudolar homiyligi ostida hukmdorlar davlatni boshqaradi» tushunchasi xalq ommasi ongiga singdirilgan [Avdiyev V.I. 1964. 475-b.].

Ossuriya podshosi Tiglatpalasar III davrida Nairi, Kichik Osiyo, Suriya, Finikiya bosib olinadi. Tiglatpalasar III Bobil bilan tengma-teng kurash olib borgan va

Ossuriyaga bostirib kirgan oromiy qabilalarini Frot daryosi ortiga surib chiqqargan. Tiglatpalasar III mamlakatdagi ichki ahvolni turg‘unlashtirishga qaratilgan islohotlar o‘tkazgan.: noibliklarni yiriklashtirib, noiblarni markaziy hokimiyatga bo‘ysundirgan, shoh qaramog‘ida bo‘lgan muntazam yollanma qo‘sishin tuzgan. Tiglatpalasar III g‘arbda mil.avv. 743-740-yillarda Suriya, Finikiya va Kichik Osiyolik hukmdorlarning Arpad koalitsiyani tor-mor keltirgan. Mil.avv. 734-732-yillarda Damashq va Isroil podsholiklari, Tir, Falastin shaharlari, Arabiston yarim orolidagi knyazliklar va Edomni birlashtirgan koalitsiya ustidan g‘alaba qozongan. Ossuriyaliklar ko‘plab shiddatli va muvaffaqiyatli harbiy yurishlar natijasida butun Yaqin Sharqdan katta resurslarga ega bo‘lib, Ossuriya shohlarini juda boy qildilar. Saroylar kattaligi va jozibasi bo‘yicha mutlaqo yangi ko‘rinishga ega bo‘ldi [[www.worldhistory.org](http://www.worldhistory.org). internet sayti].

Ossuriyaliklarning madaniyati qo‘sni etnik guruhlardan ham, qadimgi davlatlardan ham farq qiladi. Ko‘pgina ossuriyaliklar hanuzgacha Sharqiy oromiyning akkad tili ta’sirida bo‘lgan turli lahjalarda gapiradi, o‘qiydi va yozadi. Qadimgi ossurlarning uylari iqlimga mos holda Misr uylariga o‘xshab yassi tomli va ochiq ayvonli qurilgan. Xonalarning poliga gilamlar to‘shalgan, xona devorlariga va ayvon eshiklariga ham gilamlar ilingan. Ossurlarning kiyimi iqlimga mos bo‘lgan. Ko‘ylaklar tovongacha tushib, ba’zida tizzagacha qisqartirilgran va belbog‘ bilan bog‘langan. Ustki kiyimni faqat zodagonlar kiyganlar.

Ossur saroy a’yonlari, oqsuyak-zodagonlar saroy etiketiga mos kiyanganlar. Qizil zarbof kiyim, yelpig‘ich, yaraqlagan qurol-yarog‘, soyabonlar bilan saroy amaldorlari o‘zlarini ko‘z-ko‘z qilganlar. Ossur podshosi fuqarolar quyi qismi oldiga qimmatbaho toshlar qadalgan oltin toj, orqaga tushadigan uzun tasmalar bilan uzun oq qalpoqda chiqqan. Qo‘lida podsholik ramzi bo‘lgan, oltin bilan hallangan aso tutgan. Podsho bir vaqtning o‘zida oliv kohin vazifasini bajargani uchun uning kiyimida ossurlar sig‘inadigan oy va yulduzlar tasviri tushirilgan. Ossur harbiy san’ati yuksak darajada rivojlangan [[www.education.nationalgeographic](http://www.education.nationalgeographic). internet sayti].

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, Ossuriya sivilizatsiyasi Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Old Osiyoning tayanch nuqtasi bo‘lgan. Tadqiqotlarda qadimgi Ossuriya davlati, jamiyati va boy madaniyatidan dalolat beradigan noyob yodgorliklar topilgan. Mavjud manba va adabiyotlar tahliliga ko‘ra, Ossuriya podsholigi o‘zining iqtisodiy va harbiy qudrati bo‘yicha qo‘sni davatlardan ajralib turgan. Ossuriya sivilizatsiyasining ma’lum bir davrida harbiy salohiyatga ega bo‘lgan hukmdorlari ham mavjud bo‘lganligi, bu davlatning Qadimgi Sharq davlatchiligi tarixida muhim o‘rin egallaganligidan guvohlik beradi. Shuni ta’kidlash joizki, Ossuriyaliklarning madaniyati o‘z davrining buyuk yutuqlaridan biri edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Avdiyev V. I. "Qadimgi Sharq tarixi". Toshkent. 1964.
2. Kabirov A. "Qadimgi Sharq tarixi". Toshkent. 2016.
3. Rajabov R. "Qadimgi dunyo tarixi". Toshkent. 2009.
4. Rajabov R. "Qadimgi dunyo tarixi" Toshkent. 2015.
5. Rajabov R. "Jahon tarixi " ( Qadimgi Sharq). Toshkent. 2018.
6. [www.worldhistory.org](http://www.worldhistory.org). internet sayti
7. [www.education.nationalgeographic](http://www.education.nationalgeographic). internet sayti
8. [www.biblicalarchaeology.org](http://www.biblicalarchaeology.org). internet sayti